

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**M.ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA – QURILISH INSTITUTI**

Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi fakulteti

REFERAT

**Mavzu: Ishoqxon ibratning ilmiy merosi qo'qon xonligi
tarixini o'rganishda muhim manba**

**Bajardi: A.Normurodov
Tekshirdi: G'aniev K**

SAMARQAND - 2014yil

**Mavzu: Aholi joylashishi va tumanni
ryejalashtirish. Shaharsozlik va aholi joylashuvi**

Ma'ruza rejasi:

- 1. Aholining yashash joylarining turlari**
- 2. Aholi joylashishining shakli**
- 3. Aholi yashash joylarining tizimi**
- 4. Aholi yashash joylarining guruhli tizimi**
- 5. Aholi joylashishi va tabiiy muhit**

Aholi joylashuvi deganda mamlakat hududida shaharlar va boshqa aholi yashash joylarining birgalikda, o'zaro bog'liq holda fazoviy-hududiy joylashish tizimi tushuniladi.

Boshqacha aytganda, bu mavjud aholi yashash joylarini rivojlantirish va yangilarini barpo qilish orqali hududlarda aholining taqsimlanish jarayonidir.

Kattaligi turlicha bo'lgan shaharlarda ularning xalq xo'jaligi tuzilishi ijtimoiy mehnat bo'linishdagi bajaradigan roli asosan mos keladi. Kon sanoati, qayta ishlash sanoatining boshlang'ich tarmoqlari kichik va o'rta shaharlarga hamda shahar toifasidagi qishloqlar tomon tortiladi (*Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod va boshqalar*). Sanoat tarmoqlari

(*mashinasozlik, kimyo, radioelektronika*) esa katta, yirik va eng yirik shaharlarda ko'proq rivojlanadi. Tadqiqotlar shaharlarning o'sishi bilan ularda sanoat tarmoqlarining darajasi ortib borishini ko'rsatmoqda. Katta yirik va eng yirik shaharlar aholining ko'payishi bilan bir vaqtda ularning soni ham ko'payib borishi kuzatilmoqda. 1926-yilda O'zbekistonda 26 ta shaharlar bo'lgan bo'lsa hozirgi kunda ularning soni 129 tani tashkil etadi. Ularning jadal o'sishi dastavval ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq (*sanoat bilan fanning qo'shilishi, ta'lim va boshqalar*).

Ijtimoiy mehnatning bo'linishida kichik va o'rta shaharlar katta o'rin egallaydi. Ular absolyut ko'pchilikni tashkil etadilar. Hozirgi kunda kichik va o'rta shaharlarning o'sishi, kelajak rivojlanishi ularning arxitektura-rejali yechimlari sifatini oshirish muammolari mavjud. Ularda erkin mehnat resurslarini ijtimoiy mehnatga jalb etish muammosi katta o'rin egallaydi.

Aholining yashash joylarining turlari Aholi joylashishining turlari ishlab chiqarishning iqtisoslashishiga va uning tarmoqlarining kooperatsiyasiga bog'liq. Aholi joylashishining turlari shuningdek aholi yashash joylari iqtisodiy bazasining xususiyatlari va ularning kattaligi bilan belgilanadi. Ibtidoiy jamoa tizimi tugatilishi bilan mehnatning taqsimlanishi-hunarmandchilik va savdo sohasidan qishloq xo'jaligining

ajralishi jarayoni aholi joylashishining 2 ta turi-shahar va qishloq turini vujudga keltirdi.

Hozirgi kunda ham aholi joylashishining 2 ta asosiy turini ajratish mumkin:

-shahar turi-shaharlar va shahar turidagi qishloqlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq.

-qishloq turi –turli qishloq aholi yashash joylarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Har bir asosiy ko'rinish ichida iqtisodiy, tabiiy, demografik va boshqa o'ziga xos sharoitlarga bog'liq bir qator turlarni ajratish mumkin. Aholi joylashishining shahar ko'rinishi ichida aholining eng yirik, yirik katta shaharlarida to'planishi bilan ajralib turadigan jamlangan yoki zichlangan (konsentrirovanniy) turi hamda aholining ko'pchilik qismi o'rta, kichik shahar va shahar turidagi qishloq joylariga tarqalgan (*dispereniy*) turlari bo'ladi.

Aholi joylashishining shakllari aholi yashash joylari turining zichligi, ma'lum bir hudud chegarasida o'zaro joylashishi xususiyatlariga hamda aholi yashash joylari orasidagi aloqa turlarining rivojlanish darajasiga bog'liq.

Aholi yashash joylari o'rtasida aloqalarining turli ko'rinishlari shakllanmoqda. Aholi yashash joylarining o'zaro

joylashish xususiyatlar va ular orasidagi funksional aloqalar rivojlanishi aholi joylashishining ikkinchi alomati -ularning avtonom (ART) yoki guruh (AGT) shakliga mansub ekanligi belgilanadi.

Aholi yashash joylarining tizimi (ART) aholi yashash joylari bir-birlaridan uzoq joylashgan, ular o'rtasidagi kommunikatsiyalar rivojlanmagan transport aloqalari kuchsiz rivojlangan, aholi yashash joylari bir-birida ajralgan holda rivojlanadi, funksional aloqalar kuchsiz va turg'un bo'lmaydi.

Aholi yashash joylarining guruhli tizimi (AGT) esa, ular guruh tashkil etadilar. Bir-birlari bilan rivojlangan kommunikatsiya turi turg'un funksional aloqalar bilan bog'langandir. Bu bir-birlari bilan rivojlangan hududiy ishlab chiqarish aloqalari, umumiy muhandislik infrastrukturali, ijtimoiy madaniy-xizmat ko'rsatish markazlarining yaxlit turi bilan birlashgan, turli kattalikdagi xalq xo'jaligi sohasidagi shahar va qishloq aholi yashash joylarining majmuasidir.

Aholi joylashishining guruhli tizimi yirik va eng yirik hamda tumanlararo va viloyat markazlari funksiyalarini bajaruvchi o'rta va katta shaharlar ta'siri zonasida shakllanadi.

Aholi joylashishining guruhli tizimida ularning markazigacha transportda yetib borish vaqti 1.5-2 soatni tashkil

etadi. Markaz shaharning kattaligiga qarab aholi joylashining guruhli tizimining 3 ta turini farqlashadi:

- yirik*-markaz shahar aholisi 500 ming kish;
- o'rtacha*-markaz shahar aholisi 100-500 ming kishi;
- kichik*-markaz shahar aholisi 50-100 ming kishi.

Aholi joylashishi va tabiiy muhit. Aholi joylashishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar quydagilardan iborat;

- iqlim, tuproq va gidrogeologik sharoit;
- iqlim tuproq gidrogeologik sharoit;
- sanot ishlab chiqarish uchun baza hisoblangan foydali qazilmalar va yoqilg'i –energetika resurslari ;
- transport kommunikatsiyalarining rivojlanishuvini belgilab boruvchi tabiiy shakl.

Insonlar hayoti va mehnatiga tasir etuvchi tabiiy iqlim omillari katta ahamiyat kasb etadi (harorat, shamol va namlik, ichimlik ta'minlanganlik, yer rel'efi, qurilishning geologik sharoitlari, semsmik holat, abadiy muzlik, sel, zamin cho'kuvchanligi va hokozolar).

Yer yuzasida aholining dastlabki joylashishi ibtidoiy jamoa bilan tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro aloqa bilan belgilangan.

Tabiiy sharoitlarning qulayligi qadimda shahar madaniyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi yirik sug'oriladigan yerlar tizimini shakllantirish imkonini bergan.

Bunday yerlar tizimini Misrda Nil daryosining quyi oqimida, Mesopatamiyada Tigr va Yefrat daryolari quyi oqimida, Hindistonda Hind va Ganga daryolarida sohillarida vujudga kelgan.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Aholi yashash joylarining qanday turlari mavjud?
2. Aholi joylashuvining qanday shakllari mavjud?
3. Aholi joylashishi deganda nimani tushunasiz?
4. Hududni tahlil qilishning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
5. Tumanni rejalashtirishning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
6. Tumanni rejalashtirish tuzilmalari va loyihalarining qanday turlari bor?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isamuxamedova D. U. Adilova L.A. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasini: 1 qism, darslik / O'zR oiliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi,-Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 - 160 b.
2. Mirzayev M.K., Latipov D.V. O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik asoslari. O'quv qo'llanma. T.2000 TAQI.
3. Mirzayev M.K. Tumanni rejalashtirish asoslari. O'quv

qo'llanma. T.2001 TAQI.

4. Isamuhamedova D.U. «Shaharsozlik asoslari». O'quv
qo'llanma. T., 2000- u.